

SANOAT KORXONALARINI SOLIQ NAZORATINI TASHKIL ETISHNING MASALALARI

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Mustaqil izlanuvchi

Tadiyev Abdurauf Abduvoxid o'g'li

Annotatsiya: maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq tekshiruvlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish masalalari yoritilgan. Soliq qonunlari va buxgalteriya hisobi standartlaridagi o'zgarishlar tufayli shaffoflikni ta'minlash va real vaqt rejimida soliq ma'murchiligi tomonidan muvofiqlikni va ma'lumotlarga yo'naltirilgan auditni osonlashtiradigan xavflarni va soliq risklarini strategik jihatdan boshqarish O'zbekiston Respublikasining yangi Soliq Kodeksiga kiritilgan soliq auditi normasining mohiyati keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy nazorat, soliq tekshiruvlari, audit, soliq auditi, auditning xalqaro standartlari, dalolatnoma, xulosa, qaror.

Kirish: Dunyo mamlakatlarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda metallurgiya sanoati korxonalarini soliqqa tortish va soliq nazoratini takomillashtirishga doir masalalarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, bugungi kunda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish, soliqqa tortish sohasidagi zaruriy o'zgarishlarni me'yoriy ta'minlash, davlat soliqlarini rejalashtirishni takomillashtirish, shuningdek, transfert narxlarini belgilashni me'yoriy ta'minlash, foydaning soliqqa tortilishiga qarshi kurashning samarali vositalarini joriy etish, qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligi sezilarli darajada soddalashtirish, «solig bo'shliqlari» deb ataladigan holatlarning oldini olish va qo'shilgan qiymat solig'ini byudjetdan qaytarish tartibini o'zgartirish hamda davlat soliqlarini rejalashtirishdan qochish shartlarini aniqlash uchun xalqaro amaliyotni joriy etish kabi masalalar muhim tadqiqot yo'nalishlari hisoblanadi. Bizga ma'lumki, mamlakatimizda metallurgiya sanoatini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Buning yaqqol misoli bo'lib Toshkent metallurgiya zavodini ishga tushirilishidir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev quyidagilarni e'tirof etdi: "Biz innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish, zamonaviy sanoat, qulay sarmoyaviy muhitni yaratish, xorijiy davlatlar va yetakchi kompaniyalar bilan hamkorlik aloqalarini kengaytirishga alohida e'tibor bermoqdamiz. Bugun har jihatdan noyob bo'lgan Toshkent metallurgiya zavodining ishga tushirilishi bu boradagi sa'y-harakatlarimizning yana bir amaliy namoyonidir, Yurtimizda qora metallurgiya rivojlanmagani sababli sanoat korxonalarini ko'p muammoga uchrar edi. Endi Toshkent metallurgiya zavodida yiliga 500 ming tonna rux va polimer qoplamali metall listlar ishlab chiqariladi"¹.

V.G.Panskov ta'kidlanganidek: "Davlat iqtisodiy rivojlanishining asosini turli shakldagi tashkilot va korxonalar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni o'z ichiga olgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyati tashkil etadi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, qoida tariqasida, ma'lum maqsadlarga ega bo'lib, tijorat tashkilotlari uchun asosiysi foyda va uni maksimal darajada oshirishdir"².

G.I.Zabolotni, M.V.Kashirina "soliq tizimini iqtisodiy jarayonlarning barcha ishtirokchilariga istisnosiz ta'sir qiladigan iqtisodiy jarayonlarni boshqarish uchun dunyodagi eng ko'p qo'llaniladigan va tan olingan tizimlardan biri deb atash mumkin"³.

A.I.Povarova tadqiqotlari davomida metallurgiya korxonalarini soliqqa tortish masalalari bo'yicha o'z fikrini bildirib o'tgan: "Katta biznesning fiskal funksiyalarini yaxshilash uchun federal markaz bir qator choralarni ko'rishi kerak, jumladan,

- strategik korxonalarining pul oqimlarini monitoring qilish va ularning faoliyati to'g'risida barcha zarur ma'lumotlarni olish sohasida, birinchi navbatda, hududiy soliq bo'linmalarining vakolatlarini kengaytirish;

¹ Мирзиёев Ш.М. Кўряпислар, дунёда нима бўляптию, Ўзбекистонда нима бўляпти — Президент Тошкент металлургия заводи ишга туширилишида иштирок этди. <https://xs.uz/uzkr/post/toshkent-metallurgiya-zavodi-ishga-tushirildi.21.11.2022>.

² Пансков В.Г. Налоговая система Российской Федерации: проблемы становления и развития. / монография. – М.: Вузовский учебник: ИНФРА-М, 2018. – 246 с

³ Заболотни Г.И., Каширина М.В. Роль и значение налоговой системы как регулятора рыночной экономики // Балканское научное обозрение. – 2019. – № 2 (4). – с. 114–117.

- past qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlarni jo‘natayotgan eksportyorlar uchun QQS to‘lashning tabaqalashtirilgan shkalasini joriy etish va tovar eksport qiluvchilar uchun QQSni to‘liq qoplashni bosqichma-bosqich bekor qilish⁴;
- offshorlarga ko‘chirilgan eksport tushumlarining kamligi uchun soliq solishni joriy etish;
- strategik soliq to‘lovchilar tomonidan nazorat qilinadigan kompaniyalardan olingan dividendlar bo‘yicha foydani soliqqa tortish;
- hisoblangan zaxiralar va umidsiz qarzlarni asosiy bo‘lmagan xarajatlarga kiritish amaliyotini yo‘q qilish;
- yangi konsolidatsiyalangan soliq to‘lovchilar guruhlarini yaratishga moratoriy kiritish va amaldagi STKGni bekor qilish (yoki muvozanatli yo‘qotishlarni cheklash);
- yirik korxonalarining top-menejerlariga to‘lanadigan haq miqdoridan yuqori soliqlar (masalan, 20–25%) belgilash⁵.

N.Djulibekov, N.Ashurova “Dunyodagi kon-metallurgiya kompaniyalari majburiy to‘lovlarining tarkibida 33 foiz – foyda solig‘iga, 27 foiz – yer qa‘ridan foydalanganlik uchun royaltiga, 3 foiz – litsenziya to‘lovlariga yo‘naltirilgan. Bundan tashqari kon-metallurgiya sanoati korxonalarini qo‘shimcha qiymat solig‘i, yer solig‘i, ish haqidagi soliqlar va sug‘urta badallari to‘laydi”⁶.

Yuqoridagilarga asoslangan xulosa qiladigan bo‘lsak, mamlakatimizda metallurgiya sanoatiga ustuvorlik berish iqtisodiyotni o‘sishi bilan birga davlat byudjetiga tushadigan soliq tushumlarning ortishiga ham katta ta‘sirga ko‘rsata oladi deb hisoblaymiz. Shuni inobatga olgan holda bu tarmoqni soliqqa tortish mexanizmlarini va qonunchiligini takomillashtirish, xorijiy mamlakatlarning tajribalariga tayangan holda chora-tadbirlarni ishlab chiqilishi bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Soliq

⁴ Povarova A.I. Inefficient VAT Administration as a Threat to Russia’s Economic Security. Economic and Social Changes: Facts, Trends, Forecast, 2013, no. 2, pp. 126-140

⁵ Povarova A.I. Relationship between metallurgical works and the budget: debt increases, taxes decline. Economic and social changes: facts, trends, forecast 6 (36) 2014. DOI: 10.15838/esc/2014.6.36.13 UDC 336.64, LBC 65.290-93.

⁶ Н.Джулибеков, Н.Ашурова “Кон-металлургия саноати корхоналарини солиққа тортиш механизми: халқаро амалиёт ва тажриба”. «O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi – Экономический вестник Узбекистана» Tahliliy jurnal/аналитический журнал. 1/2021. 45 б.

nazoratining asosiy vazifasi soliq undirishning qonuniyligi va samaradorligini ta'minlashdan iborat deb e'tirof etilishi kerak. "Soliq to'lovchilarning vijdonlilik darajasini yetarli darajada xolislik bilan baholash imkonini beradigan rasmiy yagona mezon tizimining mavjud emasligidir. Ushbu holatning oqibatlarini zamonaviy shakldagi ichki soliq nazorati tizimiga xos bo'lgan sezilarli sub'ektivizm va so'nggi o'n yillikda sodir bo'lgan soliq nizolari sonining keskin o'sishidir"⁷. Soliq nazorati soliq organlari tomonidan soliq to'lovchilarni, soliq solish ob'ektlarini va soliq solish bilan bog'liq ob'ektlarni, byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushayotgan tushumlarni hisobga olish, soliq tekshiruvlari, soliq monitoringi va soliq to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa shakllarda amalga oshiriladi."⁸ Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, davlat, xususan, bevosita soliq organlariga xorijiy mamlakatlar tajribasini qo'llash imkoniyatlariga jiddiy e'tibor qaratish lozim. Dunyodagi rivojlangan mamlakatlarning soliq nazorati bo'yicha amalga oshirayotgan tajribasidan mamlakatimiz soliq nazorati amaliyotida foydalanish lozim. Shuningdek, ularning samaradorligiga erishish uchun takroriy o'zgarishlarga duchor bo'lgan mexanizmlar, to'g'ri tahlil qilish va mavjud tajribalarni amaliyotimizga moslashtirish zarur.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagilarga asoslangan holda quyidagi takliflarni qilish mumkin: Soliq to'lovchilarni manfaatini himoya qilish bilan birga, ularni soliq to'lashdan bo'yin tovlash kabi holatlarga tushib qolmasliklarini boshqa jihatlariga ham e'tibor qaratish, halol soliq to'lovchi sifatida shakllantiruvchi yuksak ahloqiy fazilatlarini shakllantiruvchi ilmiy tadqiqotlarni ham amalga oshirishni tavsiya qilardik.

Адабиётлар/Литература/Reference:

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.

⁷ Комарова Е.И. Развитие налогового контроля в России и оценка его эффективности // Современные проблемы науки и образования. 2015. № 1 (ч. 1)

⁸ Ўзбекистон Республикасининг "Давлат солиқ хизмати тўғрисида"ги (янги таҳрири) Қонун лойиҳаси. <https://regulation.gov.uz/uz/d/67058.9.09.2022>.